

TOSHKENT PEDIATRIYA TIBBIYOT INSTITUTI

“TASDIQLAYMAN”

Toshkent pediatriya tibbiyot

instituti rektori

B.T.Daminov

2022 yil «



PEDIATRIYADA ANESTEZIYA

MODULI DASTURI

Bilim sohasi: 900 000 – Sog’liqni saqlash va ijtimoiy ta’milot

Ta’lim sohasi: 910 000 – Sog’liqni saqlash

Mutaxassislik: 70 910303 – Bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi

Toshkent – 2022

Tuzuvchilar:

YUsupov A.S. - ToshPTI Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi kafedrasi dotsenti, t.f.n.

Talipov M.G. - ToshPTI Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi kafedrasi assistenti.

Taqrizchilar:

Ichki taqrizchi:

SHaripov A.M. - ToshPTI SHoshilinch pediatriya. Tabiiy ofatlar kafedrasi mudiri, professor,t.f.d.

Tashqi taqrizchi:

Satvaldiyeva E.A. - TXKMRM Pediatriyada anesteziologiya va intensiv terapiya kafedrasi mudiri, professor, t.f.d.

Modul dasturi Toshkent pediatriya tibbiyat institutida ishlab chiqildi.

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyat instituti MUK yigilishida ko'rib chiqilgan va tasdiklashga tavsiya berilgan. (2022 yil “__” avgust “___” – sonli bayonnomasi).

Modul dasturi Toshkent Pediatriya Tibbiyat instituti Kengashida ko'rib chiqilgan va tasdiqlangan. (2022 yil “_31_” avgust “_314_” – sonli buyruq 3- ilova).

1. O'quv modulining dolzarbligi va oliy kasbiy ta'limdagi o'rni

Pediatriyada anesteziya moduli – bolalarda o'tkaziladigan operatsiyalarda ogriqsizlantirish usullarini tanlash, samarali o'tkazish, anesteziya bosqichlari, komponentlarini bilish. Anesteziya tasnifi, klinik kechishi, xavf-xatari, asoratlarini bilishni o'rganadi.

Pediatriyada anesteziyatibbiyotning muhim bo'limi bo'lib, operatsion travmadan bola organizmini samarali ximoya qilish kabi jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammoni xal qilishda yordam beradi.

Demokratik jamiyat qurish, iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilishda raqabotbardosh bolalar anesteziolog mutaxassislariga bo'lgan talab oshib bormoqda. SHu tufayli o'quv dasturida magistrлarni shu kun talabi darajasida tayyorlash uchun katta ahamiyat berilgan.

Mutaxassislik bo'yicha nazariy o'qitish seminar mashg'ulotlari tarzida o'tkaziladi.

Amaliy o'qitish (magistrlik amaliyoti) kasalxonalarning anesteziologiya, reanimatologiya va intensiv terapiya yo'nalishdagi bolalar bo'limlarida o'tkazilib, bu yerda magistrlar har bir rotatsiyaga tegishli amaliy ko'nikmalar ro'yxatiga ko'ra bemorlarni kuratsiya qiladilar, qo'shimcha tekshirishlar natijalarini mustaqil interpretatsiya qiladilar, diagnostika muolajalarini, operatsiya oldi tayyorgarligini va anesteziyani amalga oshiradilar.

2. O'quv modulining maqsadi va vazifasi

2.1. Modulning maqsadi:

Modulni o'qitishdan maqsad –davolash amaliyotiga kerakli hajmdagi bilimga, mahoratga va amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan zamonaviy, yuqori sifatli malakali bolalar anesteziologi mutaxassislarini tayyorlashdir.

2.2. Modulning vazifalari:

Modulda talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga asoslangan quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- bolalarda og'riq xaqida tushuncha, og'riq sezish turlari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish;
- pediatriyada anesteziyaamaliyotida operatsiya vaqtida og'riqsizlantirish usullarini tadbiq eta olishni o'rganish;
- anesteziya usullarini tanlash;
- anesteziyada ishlatiladigan zamonaviy preparatlarni qo'llash;
- operatsiya oldi tayyorgarligini o'tkazishda zamonaviy laborator va instrumental tekshirish natijalarini tahlil qilish malakasiga ega bo'lish;
- operatsiya vaqtida anesteziya samaradorligini baholash;

– operatsiya turiga qarab turli xil og’riqsizlantirish usullarini o’tkazish kabi ko’nikmalarini o’zlashtirish.

2.3. Modul bo’yicha talabalarning bilim, ko’nikma va malakalariga qo’yiladigan talablar:

Magistratura talabasi:

- Sog’liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruva organlarining mas’uliyati haqida;
- O’zR tibbiyot sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruva tuzilmasi (konsepsiya, tamoyillar, asosiy yo’nalishlari) haqida;
- sog’liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar haqida;
- sog’liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari to’g’risida;
- tibbiyotning zamonaviy muammolari va rivojlanishining magistral yo’nalishlari, anesteziyaning diagnostikasi, adekvat o’tkazish va davolashda qo’llaniladigan yangi texnologiyalari haqida;
- anesteziya vaqtida qo’llaniladigan jihozlarning epidemiologik ma’lumotlari, etiologik va xavf omillarining ta’siri, patogenezinining zamonaviy nazariyalari, tasniflari, asoratlar oldini olish diagnostikasining zamonaviy usullari, turli bosqichlarda adekvat o’tkazish sxemalari, ularning profilaktikasi, O’zbekiston Respublikasi sog’liqni saqlash organlarining anesteziologik xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlar to’g’risida;
- anesteziyaning o’tkazish jarayonida komp’yuter texnologiyalarining o’rni, asosiy elementlari, internet vositalari, axborotlar qidirish, ma’lumotlarni saqlash haqida;
- operatsion tizimlar, elektron pochta, konferensiyalar va taqdimotlarni tashkillashtirish to’g’risida ***tasavvurga ega bo’lishi***;
- vrachlik amaliyotida «komanda» bo’lib ishlash tamoyillarini;
- anesteziyada yondosh kasalliklarining zamonaviy laborator-instrumental va funksional tekshirish usullarini;
- anesteziyada yondosh kasalliklarining epidemiologiyasi, etiologik va tahdid omillari, patogenezinining zamonaviy teoriyasini, tasnifi, kechishining klinik variantlari, davolashning har xil bosqichlarida differensiyalangan kompleks terapiya, asoratlarini oldini olish va davolash, anesteziya o’tkazishni ***bilishi va ulardan foydalana olishi***;
- anesteziyaga tayyorlangan bemorlarning anamnezini yig’ish, bolalarga zarur davolash-diagnostik tadbirlar hajmi va to’plamini aniqlash;
- anesteziyaga tayyorlangan ayrim davolash va diagnostik muolajalarni mustaqil amalga oshirish, qo’shimcha tekshirish (laborator, morfologik, funksional, endoskopik, rentgen-radiologik, immunologik, mikrobiologik) natijalarining interpretatsiyasi, operatsion anesteziologik bo’limlarida anesteziologik qo’llanmalarni mustaqil amalga oshirish;
- kam jaroxatli operatsiyalarda og’riqsizlantirish usulini amalga oshirish;

- o'rta va yuqori travmatik operatsiyalarda kombinatsiyali anesteziya usullarini endotracheal ventilyatsiya bilan o'tkazish;
- anesteziya vaqtida tibbiy hujjatlarni yuritish;
- anesteziologik ximoya samaradorligini oshirish maqsadida klinik audit o'tkazish **malakalariga ega bo'lishi kerak.**

3. Asosiy qism

3.1. Moduldagi ma'ruza mashg'ulotlari mavzulari va mazmuni, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Modulda ma'ruza mashg'ulotlari ko'zda tutilmagan.

3.2. Moduldagi amaliy (seminar) mashg'ulotlari mavzulari, tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar mul'timediya qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhg'a ilmiy unvon (ilmiy daraja)ga va kamida 3 yillik uzlusiz ilmiy-pedagogik (ilmiy) ish stajiga ega bo'lgan, shuningdek xorijiy mamlakatlarning falsafa doktori (PhD) yoki unga tenglashtirilgan boshqa ilmiy darajali bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda quyidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- amaliy mashg'ulotlar maqsadini aniq belgilab olish;
- o'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyatini bo'yicha bilimlarni chuqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.1. Amaliy (seminar) mashg'ulotlarining mavzulari ro'yxati:

	Klinik anesteziologiya
1.	Bolalar anesteziologiyasining umumiy maqsadi, vazifalari. Bolalarning hayotiy muhim a'zolari faoliyatini aniqlash. Operatsiyadan oldin funksional tekshiruv usullari. Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash. Umumiy anesteziya bosqichlari va komponentlari. Narkoz uskunalar, nafas konturlari va sistemalar. Narkoz klinikasi. Narkoz uskunalar, nafas konturlari va sistemalarini chizish va amaliyotda yig'ish.
2.	Asosiy va maxsus usulda anesteziologik qo'llanmani ta'minlanishi. Umumiy anesteziyaning asoratlari. Operatsion-anesteziologik xavf xatar darajalari (Mixel'son va ASA bo'yicha). Anesteziologik texnika va preparat bilan bog'liq asoratlar. Bolaning umumiy holati bilan bog'liq asoratlar. Anestetik, narkotik analgetik, mushak relaksantlarining asoratlari. SHoshilinch yordam.

3.	Anesteziologik qo'llanmalar xususiyatlari: bolalar travmatologiya va ortopediyasida, neyroxitirurgiyasida . Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash.
4.	Anesteziologik qo'llanma: shoshilinch jarrohlikda . Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash.
5.	Anesteziologik qo'llanma: rejali jarrohlikda . Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash.
6.	Anesteziologik qo'llanma: bolalar oftal'mologiyasida . Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash.

2 semestr

1.	Anesteziologik qo'llanma: kardioxirurgiyada . Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash.
2.	Anesteziologik qo'llanma: otorinolaringologiyada . Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash.
3.	Anesteziologik qo'llanma: plastik jarrohlikda . Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash.
4.	Anesteziologik qo'llanma: bolalar ginekologiyasida . Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash.
5.	Anesteziologik qo'llanma: uronefrologiyada . Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash.
6.	Anesteziologik qo'llanma: neonatologiyada . Premedikatsiya. Bemorni narkozga tayyorlash va operatsiyaning turi bo'yicha anesteziya usulini tanlash.
7.	Kam jarohatli operatsiyalarda anesteziya. Anesteziya turlarini tanlash.

3.2.2. Amaliy(seminar) mashg'ulotlarini tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlar mul'timedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir akademik guruhga bir o'qituvchi tomonidan o'tkaziladi.

Amaliy mashg'ulotlarni o'tkazishda qo'yidagi didaktik tamoyillarga amal qilinadi:

- Amaliy mashg'ulotlarni maqsadini aniq belgilab olish;

- O'qituvchining innovatsion pedagogik faoliyati bo'yicha bilimlarni chiqurlashtirish imkoniyatlariga talabalarda qiziqish uyg'otish;
- Talabada natijani mustaqil ravishda qo'lga kiritish imkoniyatini ta'minlash;
- Talabani nazariy-metodik jihatdan tayyorlash va h.k.

3.2.3. Modulni o'qitish davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar va kompetensiyalar

Modul davomida egallanadigan amaliy ko'nikmalar ro'yxati:

1-semestr

Nº	Amaliy ko'nikmalar ro'yxati
1.	Anesteziolog ish stolini tayyorlash.
2.	Operatsiya oldi tayyorgarligi kurish.
3.	Premedikatsiya yozish.
4.	Operatsiya oldi umumdavolovchi tayyorgaligini ko'rish.
5.	Bemorning umumiy axvoli, yoshi, operatsiyaning katta kichikligiga karab anesteziya usulini tanlash.
6.	Ingalyatsion anesteziya.
7.	Noingalyatsion anesteziya.
8.	Vena ichi total anesteziysi.
9.	Kombinatsiyali anesteziya o'tkazish texnikasi.
10.	Regionar anesteziya usullari.
11.	Epidural anesteziya.
12.	Orka miya anesteziysi.
13.	O'tkazuvchi anesteziya texnikasi.
14.	Maxalliy anesteziya asoratlari.
15.	Kam jaroxatli operatsiyalarda anesteziya o'tkazish xususiyatlari.
16.	Kombinatsiyali anesteziya o'tkazish texnikasi.

2 semestr

1.	Ataralgeziya usuli.
2.	Kardioxirurgik jarroxlik amaliyatida anesteziya qo'llash.
3.	Oftal'mologik operatsiyalarda og'riqsizlantirish usulini o'tkazish.
4.	Ortopedik operatsiyalarda og'riqsizlantirish usulini o'tkazish.
5.	Otorinolaringologik operatsiyalarda og'riqsizlantirish usulini o'tkazish.
6.	Umumiy anesteziya asoratlari.
7.	Operatsiyadan keyingi erta davrda bemorlar intensiv terapiyasi.
8.	Intraoperatsion monitoring.
9.	Laborator tekshirish usullari hulosasini fizikal va boshqa tekshiruv usullari xulosalari bilan taqqoslash, tahlil qilish va amaliyotga qo'llash.
10.	Reanimatsion bemirlarni individual yondoshgan holda olib borish, zaruriy dori-darmonlar hajmini aniqlash.

11.	Periferik venalarga angiokateter o'rnatish.
12.	Markaziy venalarga kateter o'rnatish.
13.	Uretraga kateter qo'yish.
14.	Oshqozonga naycha o'rnatish.
15.	O'tkir buyrak yetishmovchiligidagi intensiv davo uchun qo'llaniladigan preparatlarni dozalarini xisoblash.

- Bolalar apparaturasini qo'llab, nafas yo'llari o'tkazish qobiliyati, intubatsiya va hisob-kitob dozalashni (yosh va vazn bo'yicha) ta'minlagan holda, bolalarda operatsiyadan keyingi davrda og'riqsizlantirishni o'tkazish;
- Umumiy yoki mahalliy anesteziya ostidato'g'ri laringoskopiyasi usuli yordamida, ko'r-ko'rona og'iz va burun yo'llari orqali traxeyani intubatsiyalash;
- Mahalliy, applikatsion, infil'trativ, futlyar, o'tkazuvchi, epidural, spinal anesteziyani o'tkazish;
- Epidural bo'shliqni kateterlash;
- Narkoz,O'SV, hayot uchun muhim bo'lgan funksiyalar monitoringi uchun bo'lgan apparaturalardan ularni parvarishlash va xavfsizlik qoidalariga rioya qilgan holda foydalanish;
- Anesteziya, o'pka sun'iy nafasi va bemorlarni kuzatish uchun mo'ljallangan apparatlardan foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Narkoz apparati niqobi bilan o'pkalarning majburiy ventilyatsiyasini amalga oshirish, miorelaksantlarni yuborish fonida traxeyani intubatsiyalash, o'pkalarning sun'iy ventilyatsiyasini qo'lda va respiratorlar yordamida o'tkazish;
- Mahalliy og'riqsizlantirish: infil'trativ, o'tkazuvchi va epidural anesteziyani o'tkazish.

Modul davomida egallanadigan kompetensiyalar (nomi, kodi) ro'yxati:

UK 1 . Abstrakt fikr yuritish, xodisalarni tahlil va sintez qilish qobiliyatiga ega bo'lish;

UK 2. Dunyoqarashni shakllantirish uchun falsafiy bilimlarning asoslaridan foydalanish qobiliyati;

UK 3. Nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyati, qabul qilingan qarorlar uchun ijtimoiy va ahloqiy javobgarlikni olishga tayyorlik;

UK 4. O'z-o'zini rivojlantirishga, anglashga, o'qishga, ijodiy salohiyatdan foydalanishga tayyorlik;

UK 5. Favquloddagi vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UK 6. Favqulorra vaziyatlarda birinchi tibbiy yordam texnikasini, himoya usullarini qo'llashga tayyorlik;

UKK 1 . Kasbiy faoliyatning standart vazifalarini axborot, bibliografik manbalar, biotibbiyot terminologiyasi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari

va axborot xavfsizligining asosiy talablarini hisobga olgan holda hal qilishga tayyorlik;

UKK 2. Professional faoliyatdagi muammolarni hal qilish uchun og'zaki va yozma ravishda rus va xorijiy tillarda muloqot qilishga tayyorlik;

UKK 3. Tibbiy xujjatlarni yuritishga tayyorgalik;

UKK 4. Kasbiy muammolarni hal qilishda dori vositalarini va ularning kombinatsiyalarini tibbiy maqsadlarda ishlatishga tayyorlik;

UKK 5. Bemorlarga birlamchi tibbiy yordam ko'rsatishni tashkil yetish va dastlabki tibbiy sanitar yordam ko'rsatishni ta'minlashga tayyorlik;

UKK 6. Tibbiy yordam ko'rsatishda ko'zda tutilgan tibbiy asboblardan foydalanishga tayyorlik.

UK- umumiy kompetensiya

UKK – umumiy kasbiy kompetensiya

Modul davomida o'quv (klinik) amaliyotni tashkil etish bo'yicha umumiy ko'rsatma va tavsiyalar:

Amaliy mashg'ulotlarni tashqil etish bo'yicha kafedra professor-o'qituvchilari tomonidan ko'rsatma va tavsiyalar ishlab chiqiladi. Nazariy mashg'ulotlarda olgan bilim va ko'nikmalarni bemorlarni qabul qilish, kurish, kuzatish va olib borish orqali mustahkamlaydilar hamda yanada boyitadilar. Bunga moderatorlar, trenerlar, shifokorlar boshchiligidagi tibbiy yordam ko'rsatish va mustaqil ishlash yo'li bilan erishiladi. SHuningdek, darslik va o'quv qo'llanmalar asosida magistratura talabalari bilimlarini mustaxkamlashga erishish, tarqatma materiallardan foydalanish, bemorlar bilan ishlash, vaziyatli masalalar yechish, ilmiy maqolalar va tezislarni chop etish orqali magistratura talabasi bilimini oshirish, mavzular bo'yicha taqdimotlar va ko'rgazmali qurollar tayyorlash, qonun va me'yoriy xujjatlardan foydalana bilish va boshqalar tavsiya etiladi.

4. Mustaqil ta'lif va mustaqil ishlar, tashkil etish bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar

Anesteziologiya moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Magistratura talabasi mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalilanadi:

– auditoriya mashg'ulotlarida trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va

sifat jihatidan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish bayonnomalarida aks ettirish;

- tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va navbatchilik bayonnomalarida aks ettirish;

- davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan bemorlar kuratsiyasida ishtirok etish;

- aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni, suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;

- ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

- berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

- modulning (fanning) bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlar va ma'ruzalar qilish;

- vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish va tayyorlash;

- CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;

- modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish, testlar tayyorlash va h.k.

4.1. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning mavzulari ro'yxati:

1 semestr

1.Narkoz apparati kontur va sistemalarini yig'ish;

2.Operatsiyadan keyingi davrda uzaytirilgan o'pkalar ventilyatsiyasi;

3.Operatsiyadan keyingi davrda ogriqsizlantirish usullari;

4.Anesteziyada premedikatsiyani qo'llash;

5.Bolalarda operatsiyadan keyingi davrda dorilar dozasini hisoblab og'riqsizlantirishni ta'minlash;

6.Operatsiyadan keyingi davrda asoratlarning diagnostikasi va davolash;

7. Bir komponentli anesteziya o'tkazish;

8.Kombinatsiyali anesteziya turlarini o'tkazish;

9.Kombinatsiyali vena ichi anesteziyasini;

10.Kombinatsiyali endotracheal narkoz turini;

11.Ingalyatsion anesteziya o'tkazish;

12.Mahalliy og'riqsizlantirishni amalga oshirish;

13.Epidural anesteziya o'tkazish usullarini bilish;

14.Spinal anesteziya o'tkazish usullarini bilish;

15.O'tkazuvchan blokadani bajarish usullarini bilish;

16.Jarrohlik aralashuvini talab qiladigan bemor bolalarning holatini klinik, biokimiyoviy va funksional tekshirishlar asosida baholash;

17.Jarrohlik paytida yuz bergan qon yo'qotishlarining diagnostikasi va davolash;

2 semestr

1. Jarrohlik paytida zamonaviy anesteziya, nafas olish va diagnostika asboblaridan foydalangan holda bemor uchun eng xavfsiz anesteziya usulini

tanlash va o'tkazish;

2. Operatsiyadan keyingi davrda davolash va og'riqsizlantirish choralarini ishlab chiqish va o'tkazish;

3. Operatsiyadan oldin bemorning ahvolini baholash, sedatsiya o'tkazish;

4. Operatsion xonasida ish joyini xavfsizligini saqlash, portlash va yonishning oldini olish choralar, siqilgan gaz ballonlari bilan ishlash qoidalari, anesteziya uskunalari va mexanik shamollatish uskunalari bilan ishlashga tayyorgarlik ko'rish, asosiy nosozliklarni aniqlash;

4. Anesteziya uchun, zarur vositalar va dori-darmonlarni qabul qilish;

5. Anesteziya davrida bemorni kuzatish, mexanik ventilyatsiya asboblarini ishlatish;

6. Vena ichiga va ingalatsion dorilar bilan boshlang'ich (kirish) anesteziya qilish, mushak relaksantlaridan foydalanish;

7. Anesteziya apparati niqobi bilan o'pkaning majburiy ventilyatsiyasi, mushak relaksantlari vositalar yordamida traxeyani intubatsiyasini, o'pkalarni nafas olish vositasi yordamida suniy ravishda ventilyatsiyasi o'tkazish;

8. Ingatlatsiyalangan va tomir ichiga yuboriladigan dorilar bilan yetarli anesteziya qilish;

9. SHoshilinch qorin bo'shlig'i operatsiyalari (peritonit, ichak tutilishi, oshqozonichak trakti, ichki qonash, o'tkir xoletsistit va pankreatit bilan va hokazo), shoshilinch urologik operatsiyalar uchun anesteziya qilish;

10. Akusherlik muolajalari, ekstragenital patologiya bilan, shoshilinch operatsiyalar va muolajalar bilan akusherlik va ginekologik amaliyotda anesteziya qilish;

11. Bemorning ahvoli xususiyatlarini hisobga olgan holda, anesteziya paytida oqilona infuzion-transfuzion terapiyasini o'tkazish;

12. Bemorni anesteziyada va operatsiyadan keyingi davrda hayotiy funksiyalar tiklanmaguncha kuzatib borish va kerakli davolanishni amalga oshirish;

13. Bolalarda premedikatsiya, anesteziya, anesteziyadan keyingi davrini amalga oshirish;

14. Bolalarda intubatsiya texnikasining xususiyatlari, endotraxal naychani tanlash, yoshi va tana vazniga qarab dori-darmonlarni dozalarini xisoblash;

15. Epidural bo'shliqni kateterizatsiya qilish;

16. Qon guruhini va qonning Rh-mosligini aniqlash. Individual moslik va biologik sinamani o'tkazish;

17. Gemoglobin va gematokrit yetishmovchilagini, baholash va davolash;

18. Tibbiy yozuvlarni to'g'ri boshqarish.

4.2. Tavsiya etilayotgan mustaqil ishlarning shakllari:

- YAngi bilimlarni mustaqil tarzda puxta o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;
- Kerakli ma'lumotlarni izlab topish, qulay usullar va vositalarni aniqlash;
- Axborot manbalari va manzillaridan samarali foydalanish;
- An'anaviy o'quv va ilmiy adabiyotlar, me'yoriy xujjatlar bilan ishlash;

- Elektron o'quv adabiyotlar va ma'lumotlar banki bilan ishlash;
- Internet tarmog'idan maqsadli foydalanish;
- Berilgan topshiriqlarni ratsional yechimini belgilash;
- Ma'lumotlar bazasini tahlil etish;
- Ish natijalarini ekspertizaga tayyorlash va ekspert xulosasi asosida qayta ishlash;
- Topshiriklarni bajarishda tizimli va ijodiy yondoshish;
- Taqdimotlar tayyorlash;
- Masofaviy ta'lim texnologiyasidan foydalanish.

4.3. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlarni tashkil etish bo'yicha umumiyo'rsatma va tavsiyalar:

Anesteziologiya moduli bo'yicha mustaqil ish auditoriya va auditoriyadan tashqari o'tkaziladi.

Rezident mustaqil ishini tashkil etishda quyidagi shakllardan foydalaniladi:

– auditoriya mashg'ulotlarida trenajer, mulyaj va simulyatsion zallarida/markazlarida tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni pedagog nazoratida son va sifat jihatidan bajarish va amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirish bayonnomalarida aks ettirish;

– tibbiyot OTM klinikalari va klinik o'quv bazalarida auditoriyadan tashqari tashkillashtirilgan klinik navbatchilikda tasdiqlangan amaliy ko'nikmalarni navbatchi shifokor pedagog nazoratida son va sifat jihatdan bajarish va navbatchilik bayonnomalarida aks ettirish;

– davolovchi yoki navbatchi shifokor bilan bemorlar kuratsiyasida ishtirok etish;

– aholi orasida sanitar oqartuv ishlarni, suhbat va ma'ruzalarni o'tkazish;

– ayrim nazariy mavzularni o'quv adabiyotlari yordamida mustaqil o'zlashtirish;

– berilgan mavzu bo'yicha axborot (referat) tayyorlash;

– modulning (fanning) bo'limlari yoki mavzulari ustida maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha ishlar va ma'ruzalar qilish;

– vaziyatli va klinik muammolarga yo'naltirilgan vaziyatli masalalar yechish va tayyorlash;

– CASE (real klinik vaziyatlar va klinik vaziyatli masalalar asosida case-study) yechish;

– modellar yasash, krossvordlar tuzish, organayzerlar tuzish, testlar tayyorlash va h.k.

Modul bo'yicha talabalar bilimini nazorat qilish turlari va baholash mezonlari

Bolalar kardiologiyasi moduli bo'yicha nazorat turlari va baholash mezonlari haqidagi ma'lumot modul bo'yicha birinchi mashg'ulotda talabalarga e'lon qilinadi.

Talabalarning modul bo'yicha o'zlashtirish darajasining Davlat ta'lim standartlariga muvofiqligini ta'minlash uchun quyidagi nazorat turlari o'tkaziladi:

- joriy nazorat (JN)
- oraliq nazorat (ON)
- yakuniy nazorat (YAN).

Modulga ajratilgan 24 kreditni talaba JN davomida yig'adi. Modul 1,2 semestr

davom etadi. Xar semestrdan keyin talaba yarim yillik attestatsiya o'tadi. ON va YANlarga kredit ajratilmaydi, ammo o'tilishi majburiy.

JORIY NAZORAT (JN)

JNda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma va kompetensiyalarni egallash darajasini aniqlash va baholab borish ko'zda tutiladi. Bolalar kardiologiyasi moduli bo'yicha JN yozma, va birlamchi bilimlarini aniklovchi test topshirish, tarqatma materiallari bilan ishlash, vaziyatli masalalar, mulyaj va fantomlarda ishlash, ma'lumotlarini o'rganish, uyg'a berilgan vazifalarini tekshirish va shu kabi boshqa shakllarda o'tkazilishi mumkin.

Baholashda talabaning bilim darajasi, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirishi, nazariy material muhokamasida va ta'limning interaktiv usullarida ishtirokining faollik darajasi, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darajasi, kompetensiyalarni egallash (ya'ni nazariy, analitik va amaliy yondoshuvlar) hisobga olinadi.

Har bir mashg'ulotda barcha talabalar baholanishi shart. Maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball.

Talaba JNdan belgilangan kreditlarni to'plagandan, ON va YANlardan o'tganidan keyingina attestatsiyaga kiritiladi.

Joriy nazoratda saralash (o'tish) ballidan kam ball to'plagan va uzrli sabablarga ko'ra nazoratlarda qatnasha olmagan talabaga qayta topshirish uchun, navbatdagi shu nazorat turigacha, so'nggi joriy nazorat uchun yakuniy nazoratgacha bo'lган muddat beriladi.

Kasalligi sababli darslarga qatnashmagan hamda belgilangan muddatlarda joriy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakul'tet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida modul bo'yicha joriy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. SHu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba magistratura bo'limi boshlig'i tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

Modul bo'yicha magistratura talabasi reytingi quyidagicha aniqlanadi:

Ball	ECTS bahο	ECTS ning ta'rifi		Bah ο	Ta'rifi
86-100	A	"a'lo" – a'lo natija, minimal	modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;	5	a'lo

		hatoliklar bilan	<p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>muammoli savollarni aniqlashi, o'z qarashlarini ilmiy-amaliy tilda asoslab bera olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi va uni qisqa vaqt ichida ilmiy va amaliy masalalarni yechishda samarali qo'llay olishi;</p> <p>nostandard vaziyatlarda muammolarni mustaqil va ijodiy hal qila olish qibiliyatini ko'rsata olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy masalalarni qisqa, asoslangan va ratsional ravishda hal etishi;</p> <p>modul dasturida tavsiya etilgan asosiy va qo'shimcha adabiyotlarni to'liq va chuqur o'zlashtirishi;</p> <p>modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiylar va yo'nalishlar mohiyatini anglash, ularga tanqidiy baho berish va boshqa modullar ilmiy yutuqlarini qo'llay olishi;</p> <p>nazariyva amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yuqori madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
81-85	B	"juda yaxshi" – o'rtadan yuqori natija, ayrim hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnida foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida</p>	4	yaxshi

			<p>ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda to'liq bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va kompetensiyalarni to'liq egallashi;</p> <p>amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p>modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p>o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiylar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda juda yaxshi madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	
71-80	C	"yaxshi" – o'rtacha natija, sezilarli hatoliklar bilan	<p>modul dasturining barcha bo'limlari bo'yicha tizimli, to'la va chuqur bilimga ega bo'lishi, zarur dalillar bilan asoslay olishi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p>terminologiyadan (shu jumladan, ilmiy, xorijiy tilda ham) aniq, o'z o'rnila foydalanishi, savollarga javobni mantiqan to'g'ri, stilistik savodli ravishda ifodalashi;</p> <p>o'z fikrini isbotlashda yoki boshqa nazariy materialni bayon qilishda yuzaga kelgan noaniqliklarni mustaqil bartaraf eta olishi;</p> <p>modulning tayanch tushunchalarini bilishi, qisqa vaqt ichida ilmiy va kasbiy vazifalarni qo'yish hamda hal qilishda undan unumli foydalanishi;</p> <p>standart vaziyatlarda muammolarni o'quv dasturi doirasida mustaqil hal qila olishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni mustaqil ravishda bajara olishi (sifati va belgilangan soni jihatdan) va</p>	

			<p>kompetensiyalarni egallashi, ammo bir oz kamchiliklar bilan;</p> <p style="padding-left: 2em;">amaliy mashg'ulotlarda normativ-huquqiy hujjatlarni yaxshi bilishini namoyish qilishi, ushbu bilimlarni yangi vaziyatlarda to'g'ri (lekin doim ham ratsional emas) qo'llay olishi, bajarilgan ish natijalarini yetarli darajada rasmiylashtira olmaganligi;</p> <p style="padding-left: 2em;">modul dasturida tavsiya qilingan asosiy adabiyotlarni o'zlashtirishi;</p> <p style="padding-left: 2em;">o'rganilayotgan modul bo'yicha nazariyalar, konsepsiylar va yo'nalishlar mohiyatini anglay olishi va ularga tanqidiy baho berishi;</p> <p style="padding-left: 2em;">nazariy va amaliy mashg'ulotlarda butun semestr mobaynida ijodiy va mustaqil qatnashishi, guruhli muhokamalarda faol bo'lishi, vazifalarni bajarishda yaxshi darajaga ega bo'lishi lozim;</p>		
60-70	D	"qoniqarli" – sust natija, qo'pol kamchiliklar bilan	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida yetarli bilim hajmiga ega bo'lishi;</p> <p style="padding-left: 2em;">terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p style="padding-left: 2em;">javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiynganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p style="padding-left: 2em;">amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil ammo hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p style="padding-left: 2em;">kompetensiyalarni mustaqil, ammo hatoliklar bilan egallashi;</p> <p style="padding-left: 2em;">modulining umumiyl tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p style="padding-left: 2em;">pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p style="padding-left: 2em;">o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiylar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p style="padding-left: 2em;">nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>	3	Qoni qarli

55-59	E	"o'rta" – minimal natijaga teng	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida qoniqarli bilim hajmiga ega bo'lishi; terminologiyani ishlatishi, savollarga javoblarni to'g'ri bayon qilishi, lekin bunda ayrim qo'pol xatolarga yo'l qo'yishi;</p> <p>javob berishga yoki ayrim maxsus ko'nikmalarni namoyish qilishda qiyngalganda va hatolarga yo'l qo'yganda, modul bo'yicha asosiy tushunchaga ega ekanligini namoyish etishi;</p> <p>amaliy ko'nikmalarni (sifati va belgilangan soni jihatdan) mustaqil emas va hatoliklar bilan to'liq bajara olishi;</p> <p>kompetensiyalarni mustaqil emas va hatoliklar bilan egallashi;</p> <p>modulining umumiy tushunchalari bo'yicha qisman bilimga ega bo'lishi va uni standart (namunaviy) vaziyatlarni hal etishda qo'llay olishi;</p> <p>pedagog xodim yordami bilan standart vaziyatlarni hal eta olishi;</p> <p>o'qilayotgan modul bo'yicha asosiy nazariyalar, konsepsiylar va yo'nalishlar mohiyatini anglashi, ularga baho bera olishi;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda pedagog xodim rahbarligida qatnashishi, vazifalarni bajarishda yetarli madaniyat darajasiga ega bo'lishi lozim;</p>		
31-54	FX	"qoniqarsiz" – minimal darajadagi bilimlarni olish uchun qo'shimcha mustaqil o'zlashtirish i zarur	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>ilmiy terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy mantiqiy xatolarga yo'l qo'ysa;</p> <p>nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa;</p> <p>amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rيلай olmasa.</p>	2	Qoni qarsiz
0-30	F	"mutloq qoniqarsiz" –	<p>davlat ta'lim standartlari (talablari) doirasida faqat ayrim fragmentar bilimlarga ega bo'lsa;</p> <p>terminlarni ishlata olmasa yoki javob berishda jiddiy va qo'pol mantiqiy</p>		

		<p>to'liq qayta o'zlashtirish i lozim</p> <p>xatolarga yo'l qo'ysa yoki umuman javob bermasa;</p> <p style="padding-left: 40px;">nazariy va amaliy mashg'ulotlarda passiv qatnashib, vazifalar bajarish madaniyatining past darajasiga ega bo'lsa yoki umuman bajarmasa;</p> <p style="padding-left: 40px;">amaliy ko'nikmalarga va kompetensiyalarga ega bo'lmasa, o'z xatolarini hatto pedagog xodim tavsiyalari yordamida ham to'g'rيلай olmasa.</p>		
--	--	---	--	--

ORALIQ NAZORAT (ON)

Oraliq nazoratga JNdan o'tgan talaba kiritiladi. Oraliq nazoratda talabaning modul mavzulari bo'yicha bilim, amaliy ko'nikma darajasini, kompetensiyalarni egallaganlik darajasini aniqlash va baholash ko'zda tutiladi. Bolalar kardiologiyasi moduli bo'yicha ON ikki bosqichda: test va yozma topshiriqlar shaklida o'tkaziladi.

Baholashda talabaning modul bo'yicha egallagan bilim darjasni, amaliy mashg'ulot materiallarini o'zlashtirish, shuningdek, amaliy bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirish darjasni hisobga olinadi. Modul bo'yicha talabaning ON bo'yicha o'zlashtirish ko'rsatkichi 100 ballik tizimda baholanadi va turlari bo'yicha quyidagicha taqsimlanadi:

Nº	Nazorat turi	Kredit soni
1.	Joriy nazorat	24
2.	Oraliq nazorat	
2.	YAkuniy nazorat	
	JAMI	24

Bunda har bir topshiriq bo'yicha maksimal ball 100, o'tish bali 55 ball. ONda saralash balini (55) yig'olmagan talaba ONdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda to'liq kreditni yig'gan bo'lsa ham).

YAKUNIY NAZORAT (YAN)

JNga ajratilgan kreditlarni to'liq to'plagan, ONdan o'tgan talaba YANga kiritiladi. YAN modul yakunida yozma topshiriq shaklida o'tkaziladi. Bunda talabalarning kompetensiyalarni, amaliy ko'nikmalarni egallah darjasni va nazariy bilimlari tekshiriladi.

YANda saralash balini (55) yig'olmagan talaba YANdan o'tmagan va modulni o'zlashtirmagan deb hisoblanadi (JNda to'liq kreditni yig'gan bo'lsa ham).

Ta'lim muassasasi rektorining buyrug'i bilan ichki nazorat va monitoring bo'limi rahbarligida tuzilgan komissiya ishtirokida yakuniy nazoratni o'tkazish

jarayoni davriy ravishda o'rganib boriladi va uni o'tkazish tartiblari buzilgan hollarda, yakuniy nazorat natijalari bekor qilinadi va yakuniy nazorat qayta o'tkaziladi.

Kasalligi sababli yakuniy nazoratni topshira olmagan talabalarga fakul'tet dekani farmoyishi asosida, o'qishni boshlaganidan so'ng ikki hafta muddatda topshirishga ruxsat beriladi.

Semestr yakunida yakuniy nazoratda saralash balidan kam ball to'plagan talaba akademik qarzdor hisoblanadi.

Akademik qarzdor talabalarga semestr tugaganidan keyin qayta o'zlashtirish uchun bir oy muddat beriladi. SHu muddat davomida modulni o'zlashtira olmagan talaba fakul'tet dekani tavsiyasiga ko'ra belgilangan tartibda rektorning buyrug'i bilan talabalar safidan chetlashtiriladi.

JN, ON va YAN dan o'tgan, magistratura me'yoriy xujjalarda belgilangan boshqa turdag'i faoliyatlarni bajargan talabalar yarim yillik attestatsiyaga kiritiladi.

5. Asosiy va qo'shimcha o'quv adabiyotlar hamda axborot manbaalari.

5.1. Asosiy adabiyotlar.

Nº	Mualliflar	Qo'llanmaning, kitobning nomi
1.	Stepanenko S.M.	«Anesteziologiya, reanimatologiya i intensivnaya terapiya u detey» Moskva 2016 yil.
2.	Dj. Edvard Morgan, Megid S. Mixail.	«Klinicheskaya anesteziologiya» V 3 tomax. Per. pod redaksiyey A.A.Bunyatana. –2005 yil.

5.2. Qo'shimcha adabiyotlar

Nº	Mualliflar	Qo'llanmaning, kitobning nomi
1.	Bryus Makkormik	«Algoritmi deystviy pri kriticheskix sostoyaniyax v anesteziologii» 2018 yil.
2.	Norbert Rever	«Atlas po anesteziologii» Perevod s nemetskogo 2013 yil.
3.	SobirovSH.M., OtoxonovSH.E., GozizovaA.Z., Parpiyev A.G.	«SHoshilinch holatlar» Toshkent 2006 yil.
4.	YU.S.Aleksandrovich	«Anesteziya v pediatrii» Sankt-Peterburg 2013 yil.
5.	Mixel'son V.A., Grebennikov V.A.	«Detskaya anesteziologiya i reanimatologiya» Moskva 2009 yil.
6.	Mixel'son V.A.	«Intensivnaya terapiya v pediatrii» 2008 yil.
7.	Karl L.Gvinnut	«Klinicheskaya anesteziya» Perevod s angliyskogo A.E.Lyubovoy i prof. S.V.Sviridova 2014 yil.
8.	Raynera SHefera, Matiasa Eberxarda	«Anesteziologiya» Perevod s nemetskogo pod redaksiyey prof. O. A. Dolinoy 2009 yil.

9. VaymanM.A. Kriticheskiye i neotlojnye sostoyaniya v meditsine
AvakovV.E. Toshkent 2003 yil.
10. Gaba Devid M., «Kriticheskiye situatsii v anesteziologii» Moskva
Kevin Dj.Fish, Stiven 2000 yil.
K.Xauard
- 11 Dj.A.Gregori «Anesteziologiya v pediatrii» Moskva 2003 yil
- 12 Glumcher F.S., «Rukovodstvo po anesteziologii» Moskva 2008 yil.
Treshinskiy A.I
- 13 Gel'fand B.R. «Anesteziolgiya i intensivnaya terapiya» Moskva
2006 yil.
- 14 KurekV.V. Rukovodstvo po neotlojnim sostoyaniyem u detey
KulaginA.E. Moskva 2012 yil.
- 15 Polushin YU.S. «Rukovodstvo po Anesteziologii i reanimatologii»
Sankt-Peterburg 2004 yil.
16. Barax Pol.D., Kullen «Klinicheskaya anesteziya» Moskva 2000 yil.
Bryus.F.
- 17 Rid A.P., Kaplan Dj. «Klinicheskiye sluchai v anesteziologii» Perevod s
A. angliyskogo. Moskva 1995 yil.
- 18 Djon ye.Tetslaf. MD. «Spinomozgovaya, epidural'naya i kaudal'naya
Anesteziya» (perevod s angl.)
19. N.P.SHabalov. Neonatologiya. 1-2 tom., Sankt-Peterburg. 1997
- 20 Pod red. Leona Amerikanskaya Assotsiatsiya Serdsa. Amerikanskaya
CHamedeysa Akademiya Pediatrii.

5.3. Internet saytlari:

Internet sayti

<http://book.med-lib.ru/>

rmj.ruwww.doctor.ruwww.citomed.ruwww.narcoz.ruwww.respiration.rupossiblehelp.comres/www.rambler/medical

www.infoart.ru/med/index.htm – "Doktor", журнал для практикующих врачей
www.mediasphera.aha.ru/surgery/surg-mn.htm – Хирургия. Журнал им. Н.И.Пирогова
www.mediasphera.aha.ru/pediatr/ped-mn.htm – Rossiyskiy vestnik perinatologii i
pediatrii

[Medical Matrix: Guide to Internet Clinical Medicine Resources](http://www.medicalmatrix.org)

[Medsinskaya matritsa](http://www.ncbi.nlm.nih.gov) (указатель мед. ресурсов Интернета, russifirovannyi variant)

[U.S.National Library of Medicine](http://www.nlm.nih.gov) (Американская медико-библиотека)

[MedExplorer](http://www.medexplorer.com) - search engine for medicine related information (поиск медико-библиотеки)

[WebDoctor](http://www.webdoctor.ru) - the Internet navigator for physicians (поиск медико-библиотеки)

[Free MedLine access](http://www.ncbi.nlm.nih.gov) (биомедико-библиотека база данных)

PEDIATRIYADA ANESTEZIYA MODULIDAN

SILLABUS

Modulning to'liq nomi				Pediatriyada anesteziya									
Modul kodi:		Kredit hajmi: umumiy -24 kredit. SHundan: JN –24 kredit: ON - 0 YAN – 0		Modul o'tilish davri: 1 va 2 cemestr		ECTS value: (ECTS dagi kredit soni)							
Ta'lif yo'naliishi		70910303 Bolalar anesteziologiya va reanimatologiyasi		magistratura talabasi									
Modulning davomiyligi		23xafta											
O'quv soatlari xajmi:	Jami soat:			720									
	SHuningdek:												
	ma'ruza			-									
	amaliy mashg'ulot (seminar)			360 soat									
	mustaqil ta'lif			360 soat									
O'quv modulining statusi	2 modullar bloki												
OTM nomi, manzili	ToshPMI, YUnusobod tumani, Bogishamol 223												
Kafedra nomi	Anesteziologiya va reanimatologiya, bolalar anesteziologiyasi va reanimatologiyasi												
Mazkur kursning o'qituvchilar haqida ma'lumot	Amaliy mashg'ulot o'tkazuvchilarning F.I.SH. 1.			E-mail									
Mashg'ulot vaqt va joyi													
Modulning mazmuni	<p>Pediatriyada anesteziya moduli – bolalarda o'tkaziladigan operatsiyalarda ogriqsizlantirish usullarini tanlash, samarali o'tkazish, anesteziya bosqichlari, komponentlarini bilish. Anesteziya tasnifi, klinik kechishi, xavf-xatari, asoratlarini bilishni o'rganadi.</p> <p>Pediatriyada anesteziyatibbiyotning muhim bo'limi bo'lib, operatsion travmadan bola organizmini samarali ximoya qilish kabi jiddiy tibbiy-ijtimoiy muammoni xal qilishda yordam beradi.</p> <p>Amaliy o'qitish (magistrlik amaliyoti) kasalxonalarning anesteziologiya, reanimatologiya va intensiv terapiya yo'naliishdagi bolalar bo'limlarida o'tkazilib, bu yerda magistrlar har bir rotatsiyaga tegishli amaliy ko'nikmalar ro'yxatiga ko'ra bemorlarni kuratsiya qiladilar, qo'shimcha tekshirishlar natijalarini mustaqil interpretatsiya qiladilar, diagnostika muolajalarini, operatsiya oldi tayyorlarligini va anesteziyanı amalga oshiradilar.</p>												
Prerekvizitlar	Modulga normal fiziologiya, farmakologiya va bolalar fakul'tet xirurgiyasi fanlari nazariy qismi hisoblanadi.												
Postrekvizitlar	Pediatriyada anesteziyamoduli keyinchalik bolalar gospital xirurgiyasi modullari uchun nazariy zamin bo'lib xizmat qiladi.												
Modulning maqsadi	Modulni o'qitishdan maqsad –davolash amaliyotiga kerakli hajmdagi bilimga, mahoratga va amaliy ko'nikmaga ega bo'lgan zamonaviy, yuqori sifatli malakali bolalar anesteziologiyi mutaxassislarini tayyorlashdir.												

Modulning vazifalari	<p>Modulda talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalarga uslubiy yondashuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirishga asoslangan quyidagi vazifalar qo'yilgan:</p> <ul style="list-style-type: none"> - bolalarda og'riq xaqida tushuncha, og'riq sezish turlari bo'yicha bilimlarni o'zlashtirish; - pediatriyada anesteziyaamaliyotida operatsiya vaqtida og'riqsizlantirish usullarini tadbiq eta olishni o'rganish; - anesteziya usullarini tanlash; - anesteziyada ishlataladigan zamonaviy preparatlarni qo'llash; - operatsiya oldi tayyorgarligini o'tkazishda zamonaviy laborator va instrumental tekshirish natijalarini tahlil qilish malakasiga ega bo'lism; - operatsiya vaqtida anesteziya samaradorligini baholash; - operatsiya turiga qarab turli xil og'riqsizlantirish usullarini o'tkazish kabi ko'nikmalarni o'zlashtirish.
Modul talabalar ko'nikma malakalariga qo'yiladigan talablar	<p>Talaba tasavvurga ega bo'lishi kerak:</p> <ul style="list-style-type: none"> - Sog'liqni saqlash sohasida Davlat siyosati va uning amalga oshirilishida barcha boshqaruv organlarining mas'uliyati haqida; - O'zR tibbiyat sohasining rivojlanish strategiyasi va boshqaruv tuzilmasi (konsepsiya, tamoyillar, asosiy yo'naliishlari) haqida; - sog'liqni saqlash tizimi va ularda olib borilayotgan islohotlar haqida; - sog'liqni saqlashni rivojlantirishning asosiy siyosiy tamoyillari, standartlari, istiqbollari to'g'risida; - tibbiyotning zamonaviy muammolari va rivojlanishining magistral yo'naliishlari, anesteziyaning diagnostikasi, adekvat o'tkazish va davolashda qo'llaniladigan yangi texnologiyalari haqida; - anesteziya vaqtida qo'llaniladigan jihozlarning epidemiologik ma'lumotlari, etiologik va xavf omillarining ta'siri, patogenezinining zamonaviy nazariyalarini, tasniflari, asoratlar oldini olish diagnostikasining zamonaviy usullari, turli bosqichlarda adekvat o'tkazish sxemalari, ularning profilaktikasi, O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash organlarining anesteziologik xizmatiga tegishli buyruq va normativ hujjatlar to'g'risida; - anesteziyaning o'tkazish jarayonida komp'yuter texnologiyalarining o'rni, asosiy elementlari, internet vositalari, axborotlar qidirish, ma'lumotlarni saqlash haqida; - operatsion tizimlar, elektron pochta, konferensiylar va taqdimotlarni tashkillashtirish to'g'risida <p>Talaba bilishi va undan foydalana olishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - vrachlik amaliyotida «komanda» bo'lib ishslash tamoyillarini; - anesteziyada yondosh kasalliklarining zamonaviy laborator-instrumental va funksional tekshirish usullarini; anesteziyada yondosh kasalliklarining epidemiologiyasi, etiologik va tahdid omillari, patogenezinining zamonaviy teoriyasi, tasnifi, kechishining klinik variantlari, davolashning har xil bosqichlarida differensiyalangan kompleks terapiya, asoratlarini oldini olish va davolash, anesteziya o'tkazishni.

	<p>Talaba quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi lozim:</p> <ul style="list-style-type: none"> - anesteziyaga tayyorlangan bemorlarning anamnezini yig'ish, bolalarga zarur davolash-diagnostik tadbirlar hajmi va to'plamini aniqlash; - anesteziyaga tayyorlangan ayrim davolash va diagnostik muolajalarni mustaqil amalga oshirish, qo'shimcha tekshirish (laborator, morfologik, funksional, endoskopik, rentgen-radiologik, immunologik, mikrobiologik) natijalarining interpretatsiyasi, operatsion anesteziologik bo'limlarida anesteziologik qo'llanmalarini mustaqil amalga oshirish; - kam jaroxatli operatsiyalarda og'riqsizlantirish usulini amalga oshirish; - o'rta va yuqori travmatik operatsiyalarda kombinatsiyali anesteziya usullarini endotracheal ventilyatsiya bilan o'tkazish; - anesteziya vaqtida tibbiy hujjatlarni yuritish; - anesteziologik ximoya samaradorligini oshirish maqsadida klinik audit o'tkazish.
Ta'lim berish usullari	An'anaviy ta'lim, interfaol usullar, zoom identifikatori orqali onlayn dars olib borish.
Ta'minot	

O'qitish natijalari:

Modulni yakunlaganda talaba biladi:

- anesteziyada yondosh kasalliklarining zamonaviy laborator-instrumental va funksional tekshirish usullarini;
anesteziyada yondosh kasalliklarining epidemiologiyasi, etiologik va tahdid omillari, patogenezinining zamonaviy teoriyasini, tasnifi, kechishining klinik variantlari, davolashning har xil bosqichlarida differensiyalangan kompleks terapiya, asoratlarini oldini olish va davolash, anesteziya o'tkazishni.

Modulni yakunlaganda talaba bajara oladi:

- anesteziyaga tayyorlangan bemorlarning anamnezini yig'ish, anesteziyaga tayyorlangan ayrim davolash va diagnostik muolajalarni mustaqil amalga oshirish, operatsion anesteziologik bo'limlarida anesteziologik qo'llanmalarini mustaqil amalga oshirish; operatsiya turiga karab anesteziya usullarini tugri tanlash, anesteziya vaqtida tibbiy hujjatlarni yuritish.